



“SAMIMIYAT” UMUMIY MA’NOLI MAQOLLARNING SEMANTIK XUSUSIYATI

Sayfullayeva Fotima Baxodir qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti fakultet 3-bosqich talabasi

Telefon raqam: +998919205260

fotimasayfullayeva004@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10002488>

ARTICLE INFO

Received: 05th Oktober 2023

Accepted: 13th Oktober 2023

Online: 14th Oktober 2023

KEY WORDS

Samimiyat, beg‘arazlik, pokdillik, poklik, ikkiyuzlamachilik, nosamimiylik, maqol, sema, semantik xususiyatlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada “samimiyat” umumiy ma’noli maqollarning semantik xususiyatlari, ularning semantik tizimi o‘rganildi. “Ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasining “samimiyat” umumiy ma’noli birliklari o‘quvchilarda shaxs ma’naviy sifatlarining takomillashuvi va tarbiyaviy ahamiyatiga ta’siri maqollar tahlili orqali amalga oshirilgan.

KIRISH.

Bugungi siyosiy, iqtisodiy globalashuv jarayonida jahon ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy manzarasida juda katta o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Bu davrda vaziyatning ijobiy tomonga yoki aksincha bo‘lishi shaxs ma’naviyatiga borib taqalishi tabiiy. Ma’naviy yuksalish barcha inqirozlarning oldini oladigan muhim jarayon. Ayniqsa, shaxs va jamiyatning tolerantligi samimiy do‘stlik rishtalarini yuzaga keltiradi. Shu boisdan iqtisodiy hayot bilan bir qatorda ma’naviy hayotda ham tub islohotlar amalga oshirib kelinayotganligi davr talabi hamdir.

Har bir shaxs milliy ma’naviyatni asrashi va kelgusi avlodga mazkur qadriyatlarni saqlashi hamda iqtisodiy ehtiyojlarimiz singari muhim va majburiy bo‘lishi fuqaroviy jamiyat qurishning muhim omillaridan biri. Mustaqillikning ilk kunlaridan Birinchi Prezidentimiz ma’naviyatga e’tibor qaratib: “Kelajagi buyuk davlat, eng birinchi navbatda, bo‘lajak fuqarolarining madaniyati, ma’lumoti va ma’naviyati haqida g‘amxo‘rlik qilmog‘i zarur. Shu sababli, men barcha vatandoshlarimizga murojaat qilib aytaman: bugun hayot qanchalik og‘ir bo‘lmasin, ma’naviyatimiz va madaniyatimizni unutmaylik!” – deya ma’naviyatimizga va o‘z milliy e’tiqodimizga sodiq qolishga chaqirganlar.[1, 224]

Milliy til orqali xalqlarning nimaga qiziqishini, til sohiblarining dunyoqarashini, shu xalqning ma’naviy sifatlarining darajasini, jamiyatning qanday darajada ma’naviy yuksalayotganligi yoki ma’naviy qoloqligini bilib olish mumkin. Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida shakllanib kelayotgan yo‘nalishlardan biri “Ma’naviyat” leksik kategoriyasi hisoblanadi. Uning tarkibiy qismlarini turli metodlar orqali tadqiq etish shu yo‘ldagi izlanishlar samarasini belgilaydi. Ushbu tadqiq “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasining amaliy jihatdan o‘rganuvchilar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.



Ma'naviyat masalasi hamma zamon va makonda, ayniqsa, bugungi dunyo hamjamiyatidagi tahlilali vaziyatda juda muhim masala hisoblanadi. Bu, albatta, bejiz emas. Chunki, ma'naviyati yuksak kishilar har sohada ilg'or, keng fe'lli, oqil va uzoqni o'ylab ish ko'radigan insonlardir. Ana shunday xususiyatlarni ommaga yetkazish hammamizning vazifamiz. Xususan, ma'naviyatni oddiy xalq ommasiga yetkazish uchun barchaga tanish bo'lgan maqol, hikmatli so'z va iboralardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, maqollar xalqimizning unutilmas boyligiga aylangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Maqol va matallarda, naql va barqaror iboralarda xalqning hayotiy muammolari, mehnat-mashaqqati, g'am-anduhi, rohat-farog'ati, muvaffaqiyat va mag'lubiyati, rasm-rusumlari ma'naviyati hamda madaniyati – hamma-hammasi ko'zgudagidek aks etib turadi. Bu ko'hna xalq ijodi qachon va qanday vaziyatda, kim tomonidan yaratilganligini aniq aytish qiyin. Har holda, bu sodda va murakkab, turg'un va barqaror iboralarni maqol va matallarni ixcham, lo'nda va chuqur mazmunli naqlarning yaratilishida oddiy ijodkor xalq bilan birga uning madaniyati, ma'naviyatidan, urf-odatidan kelib chiqib olim-ulamolarning hissalarini ham katta bo'lgani, shubhasiz. [3, 394] "O'zbek tilining izohli lug'ati" da maqol quyidagicha ta'riflanadi:

Maqol [a – maqola, kichik asar; so'z, nutq] Hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihah mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli, tugal ma'noli va hikmatli ibora, gap.[4, 569]

Demak, maqollarda xalqimizning urf-odatlari, an'analari, madaniyati aks etadi. Maqollar bejizga yaratilmaydi. Ularning zamirida xalqimizning ozu-umidlari, g'am-anduhlari yashiringan bo'ladi. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodi tomonidan yaratilgan maqollarning mavzu doirasi keng va rang-barangdir. Xalqning til boyligi – uning bo'yoqdor, serjilo leksikasining, frazeologiya qatlamining boyligi bilan ham o'lchanadi. Ayniqsa, xalq maqollarining semantik xususiyatlari tilimizning boy imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR.

Maqollar o'z navbatida ta'lim va tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o'tgan ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarga fikrni yaxshiroq yetkazib berish uchun ham tarkibida "ma'naviyat" umumiy ma'noli so'zlar mavjud bo'lgan maqollardan foydalansak, ko'zlagan maqsadimizga erishamiz, deb o'ylayman.

Maqollar to'plamlarda yetmishdan ortiq mavzu guruhlariga bo'lingan. Ularning ichida nutq madaniyati, muomala, muloqat odobi masalasiga oidlarining o'zi ichki tasniflashda *oz so'zlash, tinglash, sukut saqlash, shirinso'zlik, to'g'ri so'zlash, mushohadakorlik, Vatan, kasb-hunar, farzand tarbiyasi, farosat, hilm, saxiylik, samimiyat* va hokozo mavzularni o'z ichiga oladi.

[<https://www.samdu.uz/>]

Albatta, biz ulardan o'z o'rnida unumli va o'rinli foydalansak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Mana shu mavzulardan biri "samimiyat" umumiy semali leksik birliklarning maqollarda ifodalanishini tahlil qilamiz.

"O'zbek tilining izohli lug'ati" da "samimiyat" leksemasi quyidagicha berilgan:

Samimiyat [a. – tozalik soflik; chinlik, to'g'rilik] Chin ko'ngildan beg'araz, sidqidillik bilan qilingan xatti-harakat; samimiylik.[5, 435]



“Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug’ati”da quyidagicha izohlanadi:

Samimiyat kishilarga qalban xayrixohlik bildirish, pokdillik, sidqidillikdir. Samimiyat insondagi eng yaxshi xislat, oliy insoniy fazilatlardan biri bo’lib, axloqning muhim me’yorlaridan hisoblanadi.[6, 502]

“Samimiyat” umumiy ma’noli maqollar quyidagi guruhlariga bo’linadi:

1. *Samimiylik* umumiy ma’noli maqollar: Bug’doy noning bo’lmasa ham, Ochiq yuzing bo’lsin. Yurak toza – tilak toza. Qalbing toza – umring toza. Yosh ko’zdan emas, yurakdan chiqar. Ixlos bilan yig’lasang, So’qir ko’zdan yosh chiqar. Ochiqning ko’ngli yorug’, Oyog’idan xon chiroq.

2. *Nosamimiylik* umumiy ma’noli maqollar: maqollar: Boshliq to’ra bo’lsa, Laganbardor ko’payar. Go’sht suyaksiz bo’lmas, Sholi – kurmaksiz. Chaqinib turgan chayondan, Biqinib turgan ilon yomon. Qalbaki bir kun quvontirsa, Ming kun munkaytirar.[7, 327-329]

“Samimiyat” umumiy ma’noli maqollarning semantik xususiyatlari orqali ularning tarbiyaviy ahamiyati oshadi. Masalan, *Bug’doy noning bo’lmasa ham, Ochiq yuzing bo’lsin* maqolida “samimiylik”, “poklik”, “pokdillik” ma’nolari mavjud. Bu maqol orqali mol-dunyong, boyliging bo’lmasa-da, samimiylik, pokdilliging bo’lsin ma’nosi va ikkiyuzlamachilik qilmaslik presuppozitsiyasi kelib chiqadi.

Yurak toza – tilak toza. Qalbing toza – umring toza maqollarida kishi “pokdillik”, “samimiylik”, “tozalik”, “beg’uborlik”, “beg’arazlik” semalari bor.

Ixlos bilan yig’lasang, So’qir ko’zdan yosh chiqar. Ushbu maqolda “ishonch”, “ixlos”, “samimiylik”, “beg’ubor” semalari mavjud.

Boshliq to’ra bo’lsa, Laganbardor ko’payar. Ushbu maqolda “nosamimiylik” umumiy semasi bo’lib, “ikkiyuzlamachilik”, “g’arazgo’ylik”, “laganbardorlik” semalari mavjud. Bu maqol orqali mansab ohsa, kishining yonida ikkiyuzlamachi, munofiq, nosamimiy shaxslar ko’payishi aytilgan.

Yuqoridagi misollar orqali “samimiylik” umumiy ma’noli maqollarning semantik xususiyatlarini ochib beradi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, “ma’naviyat” kategoriyasi va ma’naviy guruhlarining leksik-semantik xususiyatlari tizimli tarzda o’rganilmoqda. Samimiyat har bir inson uchun kerakli fazilatdir. Qaysiki insonda samimiyat tuyg’usi bo’lsa, undan hech ham yomonlik chiqmaydi. O’quvchilarga, avvalo, samimiyat va samimiylik tuyg’ularini singdirish, bag’rikenglik, halollik va ochiqkogillikni o’rgatish orqali shaxs ma’naviyatini yuksaltirish mumkin.

References:

1. Karimov I. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. J.2. – Toshkent: O’zbekiston, 1996. – B. 224
2. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6945101>
3. SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. V. – Тошкент: Ўз МЭ, 2008. – Б. 569.



5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. V. – Тошкент: Ўз МЭ, 2008. – Б.435.
6. Маънавийт асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент, 2010. – Б.502
7. O'zbek xalq maqollari. – T.: Sharq nashriyoti, 2006.